

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI**



«TASDIQLAYMAN»

**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti
rektori Sh.Sirojiddinov**

25-avgust 2026-yil

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek tili) ixtisosligi
bo‘yicha tayanch doktoranturaga kirish imtihoni dasturi**

TOSHKENT – 2026

Ushbu dastur Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashida ko'rib chiqildi va tasdiqlandi (2026-yil 25-avgustdagi 1-sonli bayonnoma).

Tuzuvchilar: S.X. Muhamedova, fil.f.d., professor

K.M. Mavlonova ped.f.d.(DSc), professor

KIRISH

Ta'lim va tarbiyaning ilmiy asoslangan tizimini takomillashtirish va zamonaviy metodologik modellarni yaratish ilmiy-pedagogik tadqiqotlar jarayonida ta'limiy hodisalarni chuqur anglash va amaliyotga tatbiq etishni talab etadi. Bugungi kunda globallashtirish va ta'lim integratsiyasi sharoitida ona tili hamda ikkinchi tilni o'qitish tizimining metodologik, nazariy va psixopedagogik asoslarini zamonaviy talablar darajasida qayta ko'rib chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Ona tili va ikkinchi til ta'limi oldiga o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri hamda ravon bayon qila oladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil, tahliliy va ijodiy fikrlaydigan, muloqot hamda nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish maqsadi qo'yilgan. Ushbu maqsadni amalga oshirishda talabgorlardan ilmiy-pedagogik tadqiqot metodologiyasini egallaganlik, til o'qitish nazariyalari va amaliyotini integratsiyalash, pedagogik psixologiya tamoyillaridan unumli foydalanish hamda zamonaviy raqamli va didaktik yondashuvlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish kompetensiyasi talab etiladi.

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'zbek tili) ixtisosligi bo'yicha tuzilgan ushbu dastur izlanuvchilarning ona tili va ikkinchi tilni o'qitishning nazariy-fundamental muammolarini tushunish, tahlil qilish va yechim taklif etish ko'nikmalarini baholashga qaratilgan. Dastur quyidagi 4 ta asosiy yo'nalishni qamrab oladi:

1. Nazariy-metodologik va ta'lim-tarbiya nazariyasi yo'nalishi – me'yoriy-huquqiy asoslar, til ta'limi metodologiyasi, lingvodidaktika kategoriyalari hamda ta'lim va tarbiyaning mazmuniy-qadriyatli prinsiplari;

2. Pedagogik tadqiqot metodologiyasi va ilmiy-metodik faoliyat yo'nalishi – ilmiy-tadqiqot jarayoni bosqichlari, empirik va statistik usullar, gipoteza hamda eksperimentlarni tashkil etish.

3. Pedagogik psixologiya va psixolingvistika yo'nalishi – til o'zlashtirish qonuniyatlari, motivatsiya, bilish jarayonlari, individual farqlar va metakognitiv strategiyalar.

4. Zamonaviy ta'lim tendensiyalari, raqamli texnologiyalar va amaliy metodika yo'nalishi – raqamli va SI texnologiyalari, STEAM, inklyuziv va loyihaviy ta'lim, darsni rejalashtirish hamda baholash mezonlari.

1-QISM. NAZARIY-METODOLOGIK VA TA'LIM-TARBIYA NAZARIYASI YO'NALISHI

“Ta'lim to'g'risida”gi, “Davlat tili haqida”gi, “Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarining mohiyati va ahamiyati haqidagi fikrlar. “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmonning mohiyati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta'lim hamda maktabgacha va maktab ta'limi samaradorligini oshirishga oid farmonlari, nutqlari mohiyati.

Ta'lim sifatini xalqaro standartlar asosida baholash, shu orqali dunyoning boshqa mamlakati bilan solishtirma tahlillarni olib borish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda qabul qilingan "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori mohiyati.

Ona tili va ikkinchi tilni o'qitishning nazariy asoslari, til ta'limi metodologiyasining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, lingvodidaktikaning predmeti va vazifalari, til o'qitish metodikasining ilmiy kategoriyalari, milliy qadriyatlar va til siyosati o'rtasidagi uyg'unlik, metodik paradigmalarning rivojlanish bosqichlari hamda ilmiylik va amaliyot uyg'unligi.

Til o'qitish nazariyalari: ilmiy-tadqiqiy, nazariy-falsafiy, qadriyatlarga asoslangan va badiiy-amaliy konsepsiya. Tilga, o'rganuvchiga va o'rganish jarayoniga asoslangan metodlar. Til ta'limidagi makrostrategiyalar. B.Kumaravadiveluning postmetod ta'lim haqidagi qarashlari. Til malakalari integratsiyasi. Tabiiy tartib gipotezasi. Ona tili o'qitishning umumdidaktik va o'ziga xos tamoyillari. Til o'qitishdagi yondashuvlar (tarixiy rivojlanishi, yutuq va kamchiliklari), ularning ona tilini o'qitishga xoslanishi. Ona tilini o'qitish metodlari tasnifi, turlari va mazmuni. Til ta'limi muhitini yaratish. Nazariy bilim va amaliy nutq faoliyati o'rtasidagi bog'liqlik.

Ona tili ta'limi orqali shaxs ma'naviyatini shakllantirish, axloqiy va estetik qadriyatlarni singdirish yo'llari. Ikkinchi til o'rganishda tolerantlik va madaniyatlararo muloqotning tarbiyaviy ahamiyati hamda madaniy kontekstni hisobga olishning pedagogik zarurligi. Ona tili ta'limida milliy g'oya, vatanparvarlik va fuqarolik ongini shakllantirish. Nutq madaniyati va axloqiy fazilatlarini shakllantirish, individual yondashuv va ijtimoiy faollikni oshirish usullari. Ikkinchi tilni o'rganishda madaniy identifikatsiya jarayonining psixopedagogik jihatlari hamda ijobiy motivatsiyani tarbiyalash. Til darslarida ijtimoiy-emotsional o'rganish va estetik tarbiya asoslari.

2-QISM. PEDAGOGIK TADQIQOT METODOLOGIYASI YO'NALISHI

Til o'qitish metodikasida ilmiy-tadqiqot jarayonining bosqichlari. Ona tili o'qitishdagi muammoni ilmiy nuqtayi nazardan aniqlash usullari. Til ta'limi sohasidagi innovatsion tadqiqot yo'nalishlari. Ona tili o'qitish metodikasida tadqiqot etikasi tamoyillari.

Til o'rganish jarayonida kuzatuv va tajriba metodlarining o'ziga xosliklari. Til o'qitishdagi empirik tadqiqotlardan olingan natijalarni tahlil qilish hamda statistik usullardan foydalanish imkoniyatlari. Til o'qitishdagi sifatli va miqdoriy tadqiqot metodlari. Til o'rganishdagi motivatsion omillarni aniqlash bo'yicha so'rovnoma tuzish usullari.

Til o'qitish metodikasi bo'yicha eksperimental tadqiqot loyihasi tuzish bosqichlari. Til ta'limida ilmiy gipoteza yaratish va uni tekshirish jarayoni. Pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va ularning samaradorligini baholash.

Til ta'limi bo'yicha dissertatsiya ishining tarkibiy qismlari. Ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari. Til o'qitish bo'yicha ilmiy maqola yozish jarayonining bosqichlari. Ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va tatbiq etish usullari.

3-QISM. PEDAGOGIK PSIXOLOGIYA YO'NALISHI

Ona tili va ikkinchi tilni o'zlashtirish jarayonining psixologik mexanizmlari. Tilni o'zlashtirishda diqqat, xotira va bilish jarayonlarini faollashtirish usullari. Ikkinchi tilni o'rganishda motivatsiya va ehtiyoj o'rtasidagi bog'liqlik. Individual farqlarni hisobga olishning psixologik asoslari. Ikkinchi tilni o'rganishda affektiv omillarning ahamiyati va stress holatlarini yengishning psixologik yo'llari.

Ona tili darslarida ijodiy va tahliliy tafakkurni rivojlantirishning psixologik shartlari. Ikkinchi tilni o'rganishda metakognitiv strategiyalarning psixologik asoslari. Ona tili o'rganishda o'z-o'zini baholash va refleksiya jarayonining psixologik asoslari. Til ta'limida o'zini boshqarish hamda o'zini rag'batlantirish ko'nikmalarini shakllantirish.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotning psixologik jihatlarini, o'qituvchining kommunikativ madaniyati va empatiya qobiliyati. Ona tili o'qitishda o'quvchilarning nutqiy faolligini oshirish psixologiyasi. Ona tili o'qituvchisining psixologik kompetensiyasi va kasbiy barqarorligi.

4-QISM. ZAMONAVIY TA'LIM TENDENSIYALARI, RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA AMALIY METODIKA YO'NALISHI

Ona tili va ikkinchi til o'qitishda raqamli texnologiyalar, onlayn platformalar hamda masofaviy ta'limning afzalliklari. Til o'rganishda "hayot davomida ta'lim olish" g'oyasi. STEAM texnologiyalari va gamifikatsiya asosida til o'qitishning didaktik imkoniyatlari. Inklyuziv ta'lim, gender tenglik hamda madaniyatlararo kommunikatsiyani rivojlantirish strategiyalari. Til o'qitishda sun'iy idrokka asoslangan o'qitish modellari va pedagogik imkoniyatlar. XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.

Ona tili darsini rejalashtirishda til ko'nikmalarining (o'qish, yozish, tinglash va so'zlash) uzviyligini ta'minlash. Ikkinchi tilni o'rgatishda kommunikativ vazifalarga asoslangan mashqlar. Yozma nutqni rivojlantirish, mustaqil ishlash faoliyatini tashkil etish hamda refleksiya mashqlarining o'rni. Dars strategiyalarini tanlash mezonlari va loyihaviy o'qitish.

Ona tili va ikkinchi til ta'limida nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni, nutqiy malakalarni baholash mazmuni, shakllari hamda mezonlari. Raqamli baholash tizimlari va xorijiy tajriba. O'quvchilar bilimini nazorat qilish texnologiyalari. Testlar, ularning turlari va test topshiriqlarini tuzish texnologiyasi. O'qituvchining dars monitoringi jarayonidagi faoliyati.

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek tili) ixtisosligi
bo‘yicha kirish imtihon dasturi yuzasidan o‘qish uchun tavsiya etiladigan
adabiyotlar:**

**I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik
nashrlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-sonli “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonuni. <https://lex.uz/docs/5013007>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28- yanvardagi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” to‘g‘risidagi Farmoni / <https://lex.uz/docs/-4545884>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-son Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-3775 son qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4623-son qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni. 2019-yil, 29-aprel.
9. ЎзР Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5850-сон Фармони. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 46 б.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs>
11. Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standarti: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-son qarori bilan tasdiqlangan // O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/ru/docs/-3153714?ONDATE=10.04.2017>.

12. Davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 27.03.2024-yildagi 157-son qarori // O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6854214>.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022–2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6008663>
14. Ona tili fani Milliy o'quv dasturi. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 215 b.
15. Council of Europe (2020). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment – Companion volume. Council of Europe Publishing, Strasbourg.
16. UNESCO. (2023). Guidance for generative AI in education and research. Paris: UNESCO.
17. OECD (2023). PISA 2022 Results (Volume I): The State of Learning and Equity in Education. OECD Publishing, Paris.
18. IEA (2021). PIRLS 2021 Assessment Framework. Chestnut Hill, MA: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College.
19. AQSH (Florida): Florida's B.E.S.T. Standards: English Language Arts. Florida Department of Education, 2020.
20. Turkiya: Türkiye Yüzyılı Maarif Modeli: Türkçe ve Türk Dili ve Edebiyatı Öğretim Programı. T.C. Milli Eğitim Bakanlığı, 2024.
21. Singapur: English Language Syllabus 2020 (Primary & Secondary). Curriculum Planning and Development Division, Ministry of Education, Singapore.
22. Finlandiya: National Core Curriculum for Basic Education 2014. Finnish National Agency for Education (EDUFI).
23. Estoniya: National Curriculum for Basic Schools. Ministry of Education and Research of Estonia, 2014 (updated 2023).

II. Ilmiy-metodik adabiyotlar:

1. Алаутдинова Н.Ф. Она тили дарсларида ижодий фикрлаш кўникмасини шакллантириш методикаси (5-синф мисолида): Пед. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 2008. – 156 б.
2. Abdurahim Sh. Ona tili ta'limida o'qib tushunish malakasini baholash. Monografiya. – Toshkent: Nodirabegim, – 2021. – 126 b.
3. Abdiraimov Sh.S. Ona tili ta'limida o'qib tushunish malakasini baholashning ilmiy-metodik asoslari: Ped.fan.dok. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2022.
4. Asilova G.A. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. – Toshkent: "Publishing high future" OK, 2024. – 264 b.

5. Azimova I. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi (Til ta'limiga oid fanlar moduli). Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: “HILOL-NASHR”, 2020. – 96 b.
6. Бобомуродова А.Я. Она тили таълими жараёнида ўйин-топшириқлардан фойдаланиш: Пед. ф. ном. ... дисс. – Бухоро, 1996. – 144 б.
7. Ҳамроев Ғ. Умумий ўрта таълим тизимида фонетикага доир ўқув материалларининг методик таъминотини такомиллаштириш, Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Самарқанд, 2019.
8. Ҳамроев А.Р. Она тили таълимида ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини лойиҳалаштириш. Пед. фан.док-ри ... дисс. – Т., 2020. – 248 б.
9. Ишмуҳамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Тарбияда инновацион технологиялар (таълим муассасалари педагог-ўқитувчилари учун амалий тавсиялар). – Тошкент: “Истеъдод” жамғармаси, 2010. – 142 б.
10. Jalolov J. J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 432 b.
11. Кенжаева М. 5–6-синф ўқувчиларида лингвистик компетенцияларни ривожлантириш методикаси: Пед. фан. док. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2021.
12. Kuldasheva S.X. Ona tilini o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish: Ped. fan. dok. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2023.
13. Madayev O., Sobirov A., Xolmanova Z., Toshmirzayeva Sh., Ziyodullayeva G., Shamsiyeva M. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.
14. Mavlonova K. va b. Maktab o'quvchilarida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish (filologiya fanlari). Metodik qo'llanma. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. – 154 b.
15. Мавлонова К. Она тили фанини адабиёт фани билан бадиий матн орқали интеграциялаб ўқитиш методикасини такомиллаштириш. Пед.ф.д. дисс... (PhD). – Тошкент, 2019.
16. Mavlonova K. Ona tili darslarida matn tuzilishini o'rgatish metodikasi: ped.fan.dok. ... diss. – Toshkent, 2023. – 243 b.
17. Мирмахсудова М. Ўқувчилар нутқини такомиллаштиришда грамматик терминлардан фойдаланишнинг лингвометодик асослари (5-7-синф она тили дарслари мисолида): Пед. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 2004. – 160 б.
18. Охунжонова О.А. Таълим босқичларида синонимлар мавзусини ўқитиш методикаси (умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълими мисолида): Пед. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 2009. – 148 б.
19. Қурбонова Х. Она тили таълими мазмунини янгилашнинг лингвометодик асослари: Пед.фан.ном. ... дисс. – Тошкент, 2005. – 157 б.
20. Roziqov O.R., Mahmudov M.H. va b. Ona tili didaktikasi. Darslik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. – 382 b.

21. Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси: Пед. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 1999. – 123 б.
22. Saidaxmedova O.I. Tabiiy tartib gipotezasining o‘zbek tili uchun talqini: filol. fan. bo‘yicha falsafa d-ri (PhD) diss. – Toshkent, 2021. – 143 b.
23. Сатторова Н. Ўқувчиларнинг иншо ёзиш малакаларини такомиллаштириш (5-синфда она тили ўқитиш жараёнида): Пед. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 1995. – 141 б.
24. Сафарова Р. Она тили таълимининг янгиланган мазмуни ва унинг дидактик асослари. – Тошкент: Фан, 1995. – 108 б.
25. Сайидахмедов Н. Янги педагогик технологиялар. – Тошкент: Молия, 2003.
26. Sobirova M. Ona tili ta’limiga antroposentrik yondashuv tamoyillari asosida yondashish. NamDU ilmiy axborotnomasi. 2021-yil 9-son.
27. Таълим бўғинларида она тили ўқитиш мазмунини янгилаш асослари. ЎТДА 2-йиғини тезислари. – Қарши, 1993. – 172 б.
28. Таълим жараёнида ижодий тафаккурни ривожлантириш масалалари / “Ўзбек тили” доимий анжуманининг олтинчи йиғини материаллари. – Тошкент: 2001. – 97 б.
29. Турдиев Н., Асадов Ю., Темиров Д. Умумий ўрта таълим тизимида ўқувчиларнинг компетенцияларини шакллантиришга йўналтирилган таълим технологиялари. – Тошкент: Т.Н.Қори Ниёзий номидаги ЎзПФИТИ, 2015. – 160 б.
30. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010.
31. To‘rboyeva M. 5–9-sinf ona tili ta’limida uzviylikni ta’minlash asosida tafakkurni rivojlantiruvchi mashqlar tizimini takomillashtirish: ped.fan.dok-ri...dis (DSc) – Namangan, 2025. – 231 b.
32. Ходжыев В. ва б. Педагогик tadqiqotlar metodologiyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot dunyosi, 2018. – 190 b.
33. Ходжыев В. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2004. – 328 b.
34. Йўлдошев Р., Рихсиева М. Иншолардаги матний хатолар, уларни тузатиш методикаси. – Тошкент: Fan va texnologiyalar, 2018. – 156 б.
35. Yo‘ldoshev R., Mirjalolova L. Ona tili ta’limida kompetensiyaviy yondashuv. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2015. – 48 б.
36. Yo‘ldosheva D., Hamroyeva Sh., Bozorova N. Ona tili ta’limi maqsadi va o‘zbek tili doimiy anjumani. – Toshkent: Turon Zamin Ziyoy, 2016. – 92 b.
37. Yuldasheva D. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi (kognitiv-pragmatik yondashuv asosida). – Buxoro: Sadriddin Salim Buxoriy, 2021.
38. Йўлдошев Ж.Ф., Усмонов С. Илғор педагогик технологиялар. – Тошкент: Ўқитувчи, 2004.

39. Йўлдошев Р.А, Рихсиева М.М. Иншолардаги матний хатолар, уларни тузатиш методикаси. – Тошкент, 2018.
40. Юсупова Т. Гапнинг бош бўлақларини ўрганиш жараёнида ўқувчилар нутқини ўстиришнинг лингвометодик асослари: Пед. фан.ном. ... дисс. – Тошкент, 2005. – 157 б.
41. Юсупова Ш. Тил таълими ва фалсафа. – Андижон, 2009. – 100 б.
42. Юсупова Ш.Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида ўқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари (академик лицейлар мисолида): Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2005. – 279 б.
43. Зиёдова Т.У. Она тили таълим жараёнида ўқувчиларнинг сўз бойлигини ошириш: Пед. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 1995. – 141 б.
44. Зиёдова Т.У. Матн яратиш технологияси. Монография.–Тошкент: Фан, 2008. – 160 б.
45. Ўзбек мактабларида она тили таълими концепцияси // Тил ва адабиёт таълими. – 1994. – № 1. – Б. 8–13.
46. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tilini o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2012.
47. Ғуломов А.Қ. Она тили ўқитиш принциплари ва методлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 92 б.
48. Ғуломов А., Неъматов Ҳ. Она тили таълими мазмуни. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
49. Sharopova F.V. Ona tili ta'limida o'qib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari: Ped. fan. dok. (PhD) ... diss. – Toshkent, 2025.
50. Shermuhammedova N.A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. – Toshkent, 2020. – 464 b.

III. Xorijiy nashrlar

1. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Словарь методических терминов (теория и практика преподавания языков). – Спб.: Златоуст, 1999.
2. Andrade, H. G. (2000). “Using rubrics to promote thinking and learning”. Educational Leadership.
3. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing. Longman.
4. Basturkmen, H. (2010). Developing Courses in English for Specific Purposes. Palgrave Macmillan.
5. Bates, A. W. (Tony). (2015). Teaching in a Digital Age: Guidelines for designing teaching and learning. Tony Bates Associates Ltd.
6. Brown, R. A First Language: The Early Stages. – Harvard University Press, 1973.
7. Brown, H. D. (2004). Language assessment: Principles and classroom practices. Pearson Education.
8. Brooks, N. (1964). Language and Language Learning: Theory and Practice. New York: Harcourt, Brace & World.
9. Buck, G. (2001). Assessing Listening. Cambridge University Press.

10. Bygate, M. (1987). *Speaking*. Oxford University Press.
11. Biggs, J., & Tang, C. (2011). *Teaching for Quality Learning at University*. Open University Press.
12. Джусупов М. Социолингвистика, лингводидактика, методика (взаимосвязь и взаимообусловленность). *Русский язык за рубежом*. № 1/2012. – С 22–28.
13. Ellis, R. *Task-based Language Learning and Teaching*. Oxford: Oxford University Press, 2003.
14. Гальскова Н.Г. *Теория обучения иностранным языкам. Учеб.пособие*. – М.: Академия, 2006. – 336 с.
15. Гальскова Н. Г., Гез Н. И. *Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика*. – М.: Академия, 2006.
16. Gass, S. M., & Selinker, L. (2008). *Second Language Acquisition: An Introductory Course*. New York: Routledge.
17. Gillian, L. *Literature and Language Teaching. A Guide for Teachers and Trainers*. 23rd edition. – Cambridge. Cambridge University Press, 2013. – P. 284.
18. Hayes, J. R., & Flower, L. S. (1980). *Identifying the organization of writing processes*. Lawrence Erlbaum Associates.
19. Halliday, M. A. K. *An Introduction to Functional Grammar*. London: Edward Arnold, 1985.
20. Hattie, J. *Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement*. Routledge, 2009.
21. Howatt, A. P. R. (1984). *A History of English Language Teaching*. Oxford: Oxford University Press.
22. Hughes, A. (2003). *Testing for language teachers* (2nd ed.). Cambridge University Press.
23. Jack C. Richards, Willy A. Renandya. *Methodology in language teaching*. – Cambridge University Press, 2002. – P.145–146.
24. Johns, T. (1991). *Should you be persuaded? The case for data-driven learning*. *English Language Research Journal*.
25. Krashen, S. D. *Principles and Practice in Second Language Acquisition*. – Oxford: Pergamon, 1982.
26. Knowles, M. S., Holton, E. F., & Swanson, R. A. (2020). *The Adult Learner: The Definitive Classic in Adult Education and Human Resource Development*. Routledge.
27. Крупченко А.К., Кузнецов А.Н. *Основы профессиональной лингводидактики: Монография*. – М.: АПК и ППРО, 2015. – 232 с. – (Серия «Профессиональная лингводидактика»).
28. Kumaravadivelu, B. *Beyond Methods: Macrostrategies for Language Teaching*. Yale University Press. 2003.
29. Clark, E. V. *First Language Acquisition*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2016. (3rd Edition).
30. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. *CLIL: Content and Language Integrated Learning*. Cambridge University Press, 2010.

31. Cummins, J. Language, Power, and Pedagogy: Bilingual Children in the Crossfire. Multilingual Matters, 2000.
32. Corder, S. P. (1981). Error Analysis and Interlanguage. Oxford University Press.
33. Larsen-Freeman, D. (2003). Teaching language: From grammar to grammaring. Heinle & Heinle.
34. Liaw, M. L. (2007). Content-based reading and writing for critical thinking skills in an EFL context. English Teaching & Learning.
35. Lightbown, P. M., & Spada, N. How Languages are Learned (4th ed.). – Oxford University Press, 2013.
36. Леонтьев А. А. Основы психолингвистики. – М.: Смысл, 2003.
37. Levy, M., & Stockwell, G. (2006). CALL Dimensions: Options and Issues in Computer-Assisted Language Learning. Lawrence Erlbaum Associates.
38. Mayer, R. E. (2020). Multimedia Learning. (3rd ed.). Cambridge University Press.
39. Martin, J. R., & Rose, D. (2008). Genre Relations: Mapping Culture. Equinox.
40. Marzano, R. J. (2001). Classroom Instruction That Works: Research-based Strategies for Increasing Student Achievement. ASCD.
41. Московкин Л. В. Методологические аспекты лингводидактики и методики обучения языку: Пособие для студентов и аспирантов / – СПб.: Корифей, 2002.
42. Nunan, D. (1991). Language teaching methodology: A textbook for teachers. Prentice Hall.
43. Perfetti, C. A. (1985). Reading Ability. Oxford University Press.
44. Piaget, J. The Language and Thought of the Child. – London: Routledge & Kegan Paul, 1923.
45. Pinker, S. The Language Instinct. – New York: William Morrow, 1994.
46. Purpura, J. E. (2004). Assessing grammar. Cambridge University Press.
47. Richards, J. Longman. Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics / J. Richards, R. Schmidt. – London: Pearson Education Limited, 2002. – P. 644.
48. Richards, J. C. (2008). Teaching Listening and Speaking: From Theory to Practice. Cambridge University Press.
49. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press, 2014.
50. Rogers, C. R. (1969). Freedom to learn: A view of what education might become. Charles E. Merrill Publishing Co.
51. Rost, M. (2011). Teaching and Researching Listening. Routledge.
52. Panferova I. Dusimbetova N. Integration of linguistic and didactic issues in the language acquisition process. Молодой учёный, № 43 (281). – С. 269–270.
53. Salmon, G. (2011). E-moderating: The Key to Teaching and Learning Online. Routledge.

54. Savignon, S. J. (1997). *Communicative Competence: Theory and Classroom Practice*. McGraw-Hill.
55. Skinner, B. F. *Verbal Behavior*. – New York: Appleton-Century-Crofts, 1957.
56. Scrivener, J. (2012). *Classroom management techniques*. Cambridge University Press.
57. Sinclair, J. McH. (2004). *How to Use Corpora in Language Teaching*. John Benjamins Publishing Company.
58. Swan, M. Seven bad reasons for teaching grammar and two good ones. // *Methodology in language teaching* – Cambridge University Press, 2002. – P. 148–152.
59. Цветкова Т.К. Овладения иностранным языком. Уточнение понятия. Вестник МГЛУ. Образование и педагогические науки. 2020. Вып. 4 (837).
60. Tomlinson, B. (Ed.). (2011). *Materials Development in Language Teaching* (2nd ed.). Cambridge University Press.
61. Trilling, B., & Fadel, C. (2009). *21st Century Skills: Learning for Life in Our Times*. Jossey-Bass.
62. Thornbury, S. (1999). *How to teach grammar*. Pearson Longman.
63. Underwood, J. (1984). *Linguistics, Computers, and the Language Teacher: A Communicative Approach*. Newbury House.
64. Ur, P. (1984). *Teaching Listening Comprehension*. Cambridge University Press.
65. Vandergrift, L., & Goh, C. C. M. (2012). *Teaching and Learning Second Language Listening: Metacognition in Action*. Routledge.
66. Vygotsky, L. S. *Thought and Language*. – Cambridge, MA: MIT Press, 1962.
67. Vygotsky, L. S. *Thought and Language*. MIT Press, 1986.
68. Выготский, Л. С. (1999). *Мышление и речь: психологические исследования* – Москва: Лабиринт.
69. Ворожцова И.Б. *Основы лингводидактики. Учеб.пособие*. – Ижевск, Удмуртский государственный университет, 2007. – 113 с.
70. Warschauer, M. (1996). *Computer-Assisted Language Learning: An Introduction*. In *Multimedia language teaching*. Tokyo: Logos International.
71. Willis, J. *A Framework for Task-Based Learning*. Longman, 1996.
72. Weigle, S. C. (2002). *Assessing Writing*. Cambridge University Press.
73. Walsh, S. (2011). *Exploring classroom discourse: Language in action*. Routledge.
74. Wolf, M. (2007). *Proust and the Squid: The Story and Science of the Reading Brain*. Harper.
75. Зимняя И.А. *Лингвopsихология речевой деятельности*. – М.: Моск. Психол.-социальный ин-т, Воронеж: НПО «МОДЕК», 2001.
76. Шаклеин В.М. *Русская лингводидактика: история и современность: Учеб. пособие*. – М.: РУДН, 2008. – 209 с.

IV. Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Azimova I. Ona tili ta'limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi. / Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti. III an'anaviy respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2019. – B. 215–224.
2. Azimova I. Ona tilini o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar. / O'zbek tili va adabiyotni o'qitishning zamonaviy metodikasi: integratsiya, metodologiya va amaliyot. Xalqaro konferensiya materiallari. – Toshkent, 2022.
3. Azimova I., Tursun Sh., Solijonov A. O'zbek tilini o'qib tushunish malakasini baholashning nazariy asoslari. // Til va adabiyot ta'limi. Toshkent. 2022-yil 4-son. 5–8-b.
4. Mahmudov N. Til ilmi va ta'limining muntazamligi. // Til va adabiyot ta'limi. Toshkent, 2021-yil. 10-son. – 7–9-b.
5. Mahmudov N. M. O'qituvchi nutq madaniyati. Darslik. – Toshkent: O'zbekiston milliy kutubxonasi, 2007.
6. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun. – Toshkent: Tasvir, 2017. – 208 b.
7. Mahmudov N. v.b. Ona tili. O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari uchun darslik. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – 112 b.
8. Mahmudov N. va boshq. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik / To'ldirilgan va qayta ishlangan 3-nashr. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017. – 160 b.
9. Mavlonova K. va b. Ona tili ta'limida grammatik yondashuv mohiyati. / "Lingvodidaktikaning dolzarb muammolari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani mater. – Toshkent, 2024. – B. 17–22.
10. Mavlonova K. O'quvchilarda matnni o'qib tushunish malakasini shakllantirish. / Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti. Res. ilm-amal. konf. materiallari. – Toshkent, 2020. – 149–154-b.
11. Mavlonova K., Hakimova N. Ona tili darslarida o'qish savodxonligini egallash imkoniyatlari. / Ўзбек тилшунослигини ривожлантиришнинг долзарб муаммолари. Рес.илм.амал.конф. матер. – Тошкент: O'zkitobsavdonashriyoti, 2020. – 340 б. – 217–224-b.
12. Mavlonova K. va b. Ona tili. 6-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. – T.: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 192 b.
13. Mavlonova K. va b. Ona tili. 7-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. – T.: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 192 b.
14. Mavlonova K. va b. Ona tili. 7-sinf ijod maktablari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: Yosh avlod matbaa, 2024. – 316 b.
15. Mavlonova K. va b. Ona tili. 7-sinf ijod maktablari uchun darslik. 1-qism. – Toshkent: Yosh avlod matbaa, 2022. – 134 b.
16. Mavlonova K. va b. Ona tili. 7-sinf ijod maktablari uchun darslik. 2-qism. – Toshkent: Yosh avlod matbaa, 2022. – 160 b.
17. Mavlonova K. va b. Ona tili. 8-sinf ijod maktablari uchun darslik. 1-qism. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024. – 128 b.

18. Mavlonova K. va b. Ona tili. 8-sinf ijod maktablari uchun darslik. 2-qism. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2024. – 152 b.
19. Mavlonova K. va b. Ona tili: 5-sinf (1-qism) darslik. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024. – 144 b.
20. Mavlonova K. va b. Ona tili: 5-sinf (2-qism) darslik. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024. – 160 b.
21. Mavlonova K. va b. Ona tili: 8-sinf. Darslik. – Toshkent: G‘.G‘ulom, 2025. – 224 b.
22. Mengliyev B.v.b. Ona tili. 2-qism. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 96 b.
23. Mengliyev B.v.b. Ona tili. 2-qism. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 96 b.
24. Mengliyev B., Baxriddinova B. Ona tili ta’limi: uzluksiz ta’lim bosqichlarida chalkashlik uchramayaptimi? // Til va adabiyot ta’limi, 2015-yil, 2-son, 8-12-b.
25. Менглиев Б., Сувонова Х. “Она тили”ни эмас, “Она тили”дан ўргатиш керак. Ўзбекистон: тил ва маданият. Ўзбек тили таълими. – Тошкент, 2017. – 170 б.
26. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. Mahmudov N., Sobirov A., Sattorov Sh., Toshmirzayeva Sh., D.Mannopova. To‘la yangilangan 5-nashr. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 192 b.
27. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Yangi nashr. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh., Hakimova N., Siddiqov M. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 224 b.
28. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S., Tursun Sh., Hakimova N., Siddiqov M. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 224 b.
29. Ona tili. 10-sinf uchun metodik qo‘llanma. B. Mengliyev [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 192 b.
30. Ona tili. 6-sinf uchun metodik qo‘llanma. K. M. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 192 b.
31. Ona tili. 7-sinf uchun metodik qo‘llanma. K. M. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 192 b.
32. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik. Yangi nashr. B.Mengliyev va b. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 224 b.
33. Ona tili 5-sinf (1-qism) [Matn]: darslik. K.M. Mavlonova, N.S. Hakimova, M.R. Siddiqov, S.H. Qo‘ldosheva; muharrir O.T. Madvaliyev. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024. – 144 b.
34. Ona tili 8-sinf [Matn]: darslik. Klaraxon Mavlonova [va boshq.]; muharrir O. Madvaliyev. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2025. – 224 b.

35. Ona tili. 9-sinf [Matn]: darslik. Shohrux Abduraimov [va boshq.]; muharrir H. Abdullayev. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2025. – 224 b.

36. Qodirov M., Ne‘matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R., Mengliyev B. Ona tili. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2019. – 144 b.

37. Qodirov V. Til va adabiyot ta‘limiga yangicha yondashuvlar yuzasidan mulohazalar. / Global ta‘lim va milliy metodika. V an‘anaviy respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2021. – B. 33–37.

38. Tursun Sh. Oliy ta‘limda “Til o‘rganish va til o‘zlashtirish” mavzusini o‘qitish yuzasidan metodik tavsiyalar. / Turkiy xalqlarning ma‘naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati. II xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2021. – B. 743–748.

39. Tursun Sh. Magistratura bosqichida “Tilni ona tili va ikkinchi til sifatida o‘qitish” mavzusini o‘rgatishning metodik aspektlari. // Til va adabiyot ta‘limi: Filologiya va pedagogika. – Toshkent, 2025. 15-son. – 116–118-b.

Elektron ta‘lim resurslari:

1. Bowens T. Communicative Language Teaching Lesson Plan Ideas. <https://www.fluentu.com/blog/educator/communicative-language-teaching-lesson-plan/>
2. Combrey J. The Chomsky Skinner Debate: How Do Humans Acquire Language? https://www.youtube.com/watch?v=HdU_zWu7Gi4.
3. Crash Course. Language Acquisition: Crash Course Linguistics #12. <https://www.youtube.com/watch?v=Ccsf0yX7ECg>.
4. Short K. Reading Aloud to Middle School Students. <https://www.edutopia.org/article/reading-aloud-middle-school-students>
5. Transcript Lingthusiasm. Episode 10: Learning languages linguistically. <https://lingthusiasm.com/post/165485706801/transcript-lingthusiasm-episode-10-learning>
6. Pardosa C. D. A Scaffolding Approach to Tackling More Complex Reading Passages. <https://www.edutopia.org/article/teaching-nonfiction-text-elementary>.

Baholash mezonlari

Kirish sinovi o‘g‘zaki o‘tkazilishi belgilangan bo‘lib, 100 ballik mezon asosida baholanadi.

Har qaysi savolga yozgan javobi quyidagicha baholanadi:

Har bir savol uchun ball	Javobga qo'yiladigan talablar
86–100	Berilgan savolga to'liq javob bergan. Nazariy ma'lumotlarni yoritishda xatolik va chalkashlikka yo'l qo'yilmagan. Mustaqil ravishda mushohada yuritib bayon etilgan. Amaliy misollar bilan asoslab bayon etilgan. Xulosani to'g'ri shakllantirgan. Fikrlar erkin bayon etilgan.
71–85	Savolning mohiyatini tushungan. Nazariy ma'lumotlarni yoritishda ayrim xatolikka yo'l qo'yilgan. Mustaqil ravishda mushohada yuritilgan. Amaliy misollar keltirilgan. Qisqacha xulosa bergan. Fikr ifodalashda juz'iy kamchilikka yo'l qo'ygan.
55–70	Savol mohiyatini tushungan. Nazariy ma'lumotlarni yoritishda bir necha marta xatolikka yo'l qo'yilgan. Mustaqil mushohada yuritilmagan. Misollar bilan asoslanmagan. Xulosa qilingan. Fikr ifodalashda bir necha bor kamchilikka yo'l qo'ygan.
0–54	Savolning ayrim elementlarigina yoritilgan yoki umuman yoritilmagan. Savol bo'yicha aniq tasavvurga ega emas.

NAMUNAVIY SAVOLLAR¹

1-yo'nalish

1. “Ta’lim to’g’risida” va “Davlat tili haqida”gi qonunlarning ona tili ta’limidagi o’rni.
2. “O’zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmon mohiyati.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta’lim, maktabgacha va maktab ta’limini rivojlantirishga oid farmonlari mazmuni.
4. Xalqaro tadqiqotlarni (PISA, PIRLS) tashkil etish to’g’risidagi hukumat qarori va uning ta’lim sifatiga ta’siri.
5. Ona tili va ikkinchi tilni o’qitishning nazariy-metodologik asoslari.
6. Til ta’limi metodologiyasining shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar.
7. Lingvodidaktikaning predmeti, vazifalari va ilmiy kategoriyalari.

¹ *Izoh.* Imtihonda har bir yo'nalishdan savol beriladi.

8. Milliy qadriyatlar va til siyosati o'rtasidagi uyg'unlik.
9. Metodik paradigmalarning rivojlanish bosqichlari hamda ilmiylik va amaliyot uyg'unligi.
10. Til o'qitishning ilmiy-tadqiqiy va nazariy-falsafiy konsepsiyalari.
11. Qadriyatlarga asoslangan va badiiy-amaliy til o'qitish konsepsiyalari.
12. Tilga, o'rganuvchiga va o'rganish jarayoniga asoslangan metodlar tahlili.
13. Til ta'limidagi makrostrategiyalar hamda B.Kumaravadiveluning postmetod qarashlari.
14. Til malakalari integratsiyasi va Tabiiy tartib gipotezasi.
15. Ona tili o'qitishning umumdidaktik va o'ziga xos tamoyillari.
16. Ona tili ta'limi orqali shaxs ma'naviyatini shakllantirish va axloqiy-estetik qadriyatlarni singdirish.
17. Ikkinchi til o'rganishda tolerantlik, madaniyatlararo muloqot va madaniy kontekstni hisobga olish.
18. Ona tili ta'limida milliy g'oya, vatanparvarlik va fuqarolik ongini shakllantirish.
19. Nutq madaniyati va axloqiy fazilatlarni shakllantirishda individual yondashuv.
20. Til darslarida ijtimoiy-emotsional o'rganish va estetik tarbiya berish imkoniyatlari.

2-yo'nalish

1. Til o'qitish metodikasida ilmiy-tadqiqot jarayonining bosqichlari.
2. Ona tili o'qitishdagi muammoni ilmiy nuqtayi nazardan aniqlash usullari.
3. Ona tili o'qitish metodikasida tadqiqot etikasi tamoyillari.
4. Til o'rganish jarayonida kuzatuv va tajriba metodlarining o'ziga xosliklari.
5. Til o'qitishdagi sifatli va miqdoriy tadqiqot metodlari imkoniyatlari.
6. Til o'rganishdagi motivatsion omillarni aniqlashga oid so'rovnomalar tuzish.
7. Empirik tadqiqot natijalarini tahlil qilishda statistik usullardan foydalanish.
8. Eksperimental tadqiqot loyihasi tuzish bosqichlari.
9. Til ta'limida ilmiy gipoteza yaratish va uni tekshirish jarayoni.
10. Til o'qitish metodikasida ilmiy-tadqiqot jarayonining bosqichlari.
11. Til ta'limi bo'yicha dissertatsiya ishining tarkibiy qismlari.
12. Ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari.
13. Til o'qitish bo'yicha ilmiy maqola yozish jarayoni bosqichlari.
14. Pedagogik tadqiqotlarda ilg'or xorijiy tajribalaridan foydalanish.
15. Til ta'limi sohasidagi innovatsion tadqiqot yo'nalishlari.
16. Lingvodidaktik tadqiqotlarda ilmiy gipotezani shakllantirish.
17. Empirik ma'lumotlarni to'plash metodikasi.
18. Tajriba-sinov natijalarini matematik-statistik usullar bilan asoslash.

19. Tadqiqot xulosalari va ilmiy-metodik tavsiyalarni shakllantirish tartibi.
20. Tadqiqotning metodologik apparatini shakllantirish mazmuni.

3-yoʻnalish

1. Ona tili va ikkinchi tilni oʻzlashtirish jarayonining psixologik mexanizmlari.
2. Tilni oʻzlashtirishda diqqat, xotira va bilish jarayonlarini faollashtirish.
3. Ikkinchi tilni oʻrganishda motivatsiya va ehtiyoj oʻrtasidagi bogʻliqlik.
4. Ikkinchi tilni oʻrganishda individual farqlarni hisobga olishning psixologik asoslari.
5. Ikkinchi tilni oʻrganishda affektiv omillar va stress holatlarini yengish yoʻllari.
6. Ona tili darslarida ijodiy va tahliliy tafakkurni rivojlantirishning psixologik shartlari.
7. Ikkinchi tilni oʻrganishda metakognitiv strategiyalarning psixologik asoslari.
8. Ona tili oʻrganishda oʻz-oʻzini baholash va refleksiya jarayonining psixologik asoslari.
9. Til taʼlimida oʻzini boshqarish va oʻzini ragʻbatlantirish koʻnikmalarini shakllantirish.
10. Oʻqituvchi va oʻquvchi oʻrtasidagi muloqotning psixologik jihatlarini.
11. Til oʻqituvchisining kommunikativ madaniyati, empatiya qobiliyati va psixologik kompetensiyasi.
12. Ona tili oʻqitishda oʻquvchilarning nutqiy faolligini oshirish psixologiyasi.
13. Ona tili oʻqituvchisining kasbiy barqarorligi va emotsional holatini boshqarish.
14. Til oʻrgatishda yosh davrlari psixologiyasini hisobga olish.
15. Til egallashda L.Vigotskiyning kognitiv rivojlanish nazariyasi qoʻllanishi.
16. Ikkinchi tilni egallashda til interferensiyasining psixolingvistik xususiyatlari.
17. Nutqiy faoliyat turlarini egallashning psixofizik mexanizmlari.
18. Til oʻrgatish jarayonida emotsional intellektni rivojlantirish.
19. Til darslarida muloqotiy toʻsiqlarni bartaraf etish usullari.
20. Tilni oʻzlashtirishda kognitiv usullar.

4-yoʻnalish

1. Ona tili va ikkinchi til oʻqitishda raqamli texnologiyalar hamda masofaviy taʼlim imkoniyatlari.
2. Til oʻrganishda “hayot davomida taʼlim olish” gʻoyasi.
3. STEAM texnologiyalari va gamifikatsiya asosida til oʻqitishning didaktik imkoniyatlari.
4. Inklyuziv taʼlimda til oʻqituvchisining roli va metodik yondashuvlari.
5. Ona tili taʼlimida gender tenglik va madaniyatlararo kommunikatsiya strategiyalari.

6. Til o'qitishda sun'iy idrokka asoslangan o'qitish modellari hamda pedagogik imkoniyatlar.
7. Til ta'limida XXI asr ko'nikmalarini (4K yondashuvi) shakllantirish.
8. Ona tili darsini rejalashtirishda til ko'nikmalarining uzviyligi.
9. Ikkinchi tilni o'rgatishda kommunikativ vazifalarga asoslangan mashqlar.
10. Ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish usullari.
11. Til o'qitishda o'quvchilarning mustaqil ishlash faoliyatini tashkil etish.
12. Ikkinchi tilni o'rganishda refleksiya mashqlarining ahamiyati.
13. Ona tili darslarida o'qitish strategiyalarini tanlash mezonlari.
14. Til o'qitishda tahliliy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish mashqlari.
15. Ona tili darslarini loyihaviy o'qitish asosida tashkil etishning afzalliklari.
16. Ona tili va ikkinchi til ta'limida nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni baholash mezonlari.
17. Raqamli baholash tizimlari va xorijiy tajriba.
18. O'quvchilar bilimini nazorat qilish texnologiyalari.
19. Test, testlarning turlari va ularni tashkil qilish texnologiyasi.
20. Ona tili o'qituvchisining dars monitoringi jarayonidagi faoliyati.